

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI CHET TILLARI FAKULTETI**

RUZMETOVA GULNOZA ILXAMOVNA

**O'ZBEK TILIDAGI INGLIZCHA O'ZLASHMALI
IBORALAR**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**5120112-Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun**

Ilmiy rahbar:

f.f.n., prof, Jumaniyazov A



URGANCH- 2015

MUNDARIJA

KIRISH	3
BIRINCHI BOB: SO Z O'ZLASHUVI VA ULARNUNG O'RGANISH TARIXI	6
1.1. Tillar aro so'z o'zlashuvi sabablari.....	6
1.2. O'zbek tilidagi so'z o'zlashuvi masalalarining o'rganilishi	9
1.3. O'zbek tilida so'z o'zlashuvi xususiyatlari	15
1.4. Ingliz tilida so'z o'zlashuvi xususiyatlari	20
IKKINCHI BOB. O'ZBEK TILIDAGI INGLIZCHA O'ZLASHMALI IBORALAR.....	27
2.1. Iboralar va ularning so'z yasalishdagi o'rni	27
2.2. O'zbek tilidagi inglizcha iboralarning morfologik xususiyati.....	34
2.2.1. O'tli iboralar	35
2.2.2. Felli iboralar	41
2.2.3. Boshqa turkumdagi iboralar	42
XULOSA.....	42
ADABIYOTLAR RO'YXATI	45

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Ialom Karimovning 2012 yil 10- dekabrda PQ-1875 sonli “Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi”dagi Qarori chet tili ta'limini rivojlantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni zamon talablariga mos yetuk mutaxassis etib tayyorlash kabi ezgu-maqсадlarga yo'naltirilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur Qarorning ahamiyatli jihati shundaki, unda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tilini uzluksiz o'rganishni tashkil qilish, shuningdek, o' qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o'quv-uslubiy manbalar bilan ta'minlashni yanada takomillashtirish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish, o'sib kelayotgan yosh avlodning chet tillariga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish va o'z navbatida , chet tillarida erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, shu bilan bir qatorda, ularning jahon sivilizatsiya yutuqlari hamda jahon axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun sharoit va imkoniyatlar yaratish ko'zda tutildi.

Ma'lumki, ilmiy-texnika revolyutsiya jamiyatimizning ishlab chiqaruvchi kuchlari va ular o'rtasidagi munosabatlarga, ulardagi miqdor va sifat ko'rinishlariga ta'sir qilibgina qolmay, balki u hayotimizning hamma sohalarida o'zgartiruvchi faoliyat ko'rsatmoqda. Binobarin, bu faollikning asosiy omili, avvalo, til hisoblanadi. Chunki hayot va jamiyatdagi har qanday o'zgarishlar, dastlab, tilda va uning vositasida amalga oshadi.

Har qanday milliy tilning lug'at tarkibi, uning jami so'z boyligi mazkur millatning butun tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan hodisadir. U doimo harakatda va o'sishda bo'ladi. Tilning rivojlanish samarasi esa, asosan ikki omilga, uning ichki va tashqi o'sish manbalaridan qanday foydalana bilishga bog'liq bo'ladi.

Xalqaro aloqalarning kengaya borishi, millatlar muvaffaqiyati va yutuqlarining samimiy umumlashuvi, ayniqsa, fan, madaniyat, sanoat, siyosat va xalq xo'jaligi sohalarida ilg'or tajriba almashuvlar, dunyoning turli burchaklaridan kelgan xabar va

ma'lumotlarni har kim o'z ona tilida qayta ishlab chiqishi kabi obyektiv va zaruriy omillar tillar rivojiga, ular lug'at tarkibining tashqi manbalar hisobiga boyib borishiga barakali ta'sir qilmoqda.

Shu ma'noda biz mazkur bitiruv malakaviy ishimizda o'zbek tiliga ingliz tilidan kirib kelgan o'zlashma so'z va iboralarning kundalik hayotimizga kirib kelishi, xalqimizning ulardan o'z nutqida foydalanishi, mazkur o'zlashmalarning qo'llanilishiga ijobiy yondashib ulardan yangi-yangi til birliklari yasatilgani va yasalayotganligini tahlil qilishga harakat qildik. Bunda ishimizda asosiy aspekt sifatida inglizcha o'zlashmalar bilan yasalgan iboralar turdi. Zero, o'zlashmalar bilan qabul qiluvchi tilda muayyan iboralarning yasalishi mazkur o'zlashmaning tilga allaqachon singishib ketganligidan dalolat beradi. Tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, inventarimizda qayd qilingan 315 ta o'zlashmaning deyarli barchasi bilan o'zbek xalqi iboralar yasab ulgurgan. Darhaqiqat, bu o'zlashmalar o'zbek xalqi hayotining barcha jabhalarida uchrovchi va zarur bo'lgan, ayniqsa ijtimoiy hayotimizda kechayotgan yangi o'zgarishlarni nomlash va umumuloqot uchun zarur bo'lgan til birliklari edi.

Ishning maqsadi quyidagilardan iborat:

1. O'zbek tiliga ingliz tilidan o'zlashgan so'z va iboralarni son va sifat tahlilini qilish ya'ni ularning sonini belgilash va o'zlashish xususiyatlarini aniqlash.
2. Iboralar yasalish xususiyatini o'rganish.
3. O'zlashma iboralarni morfologik va semantik tahlil qilish.
4. Yig'ilgan inventarlar asosida lug'at tuzish.

Ishning vazifasi. Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun biz **quyidagi vazifalarni** bajarishni o'z oldimizga qo'ydik.

1. Xalqimiz nutqida va matbuot sahifalarida uchrovchi o'zlashma so'z va iboralarni yig'ish.
2. Misol yig'ishni matbuot sahifalari va jonli til jarayonini izchil kuzatish.
3. Asosiy diqqat-e'tiborni o'zlashish jarayonidagi so'z yasalishi va ma'no munosabatlarga qaratish.

Ishning dolzarbligi. Tillarda so'z o'zlashish jarayoni doimo dolzarbdir. Zero,

nafaqat ilmiy jamoatchilik, balki xalqimiz ham milliy tilimizda kechayotgan har qanday jarayondan boxabar bo'lishi kerak. Tilning o'zlashmalar hisobiga boyib borishi va ular orqali yangi-yangi narsa va hodisalarni nomlanishi, ular orqali anglashiladigan tushuncha va tasavvurlarning aniq bo'lishi, har bir til egasi va uning suhbat uchun ham dolzarb hisoblanadi. Til egalari o'zlashma va iboralarni bilib qo'llasa hayotlarida anglashilmovchilik kam bo'ladi.

Ishning yangiligi. Bitiruv malakaviy ishimizning yangiligi shundaki, biz konkret misollar yig'dik, ular asosida lug'at tuzdik va ilmiy jamoatchilik ichida birinchilardan bo'lib, 315 ta inglizcha o'zlashma so'zni morfologik va semantik tahlil qildik.

Ishning ilmiyligi. O'zlashmalarning morfologik va semantik tahlili obro'li izohli lug'atlar, qomuslarga suyanilgan holda qilindi. Biz tomondan chop qilingan lug'at bilan tanishgan har bir o'quvchi o'zlashmalar borasida o'zining ilmiy va amaliy bilimlarini oshirishi mumkin.

Ishning amaliy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ish o'zbek tilida inglizcha o'zlashma va iboralar bo'yicha dastlabki tadqiqot bo'lganligi uchun, terminologiya sohasida ish olib borayotganlar uchun muhim manba bo'lishi mumkin.

Ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

Ilm-fan, texnika taraqqiyoti, ijtimoiy hayotning ko'pchilik sohalarida yangiliklar misilsiz darajada yangi so'z va terminlar yaratdiki, bular dunyoning qaysi tilida va qaysi xalq tomonidan yaratilgan bo'lishiga qaramay, o'zbek tili lug'at tarkibining boyishiga, uning rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir qilib kelyapti. Kirib kelgan yangi so'zlar o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlariga suyangan holda qabul qilindi. Bu leksik birliklardan o'zbek xalqi o'zining og'zaki nutqida faol foydalanib kelmoqda.

Biz mazkur ishda o'zbek tilidagi inglizcha o'zlashmalar bo'yicha jami 315 ta o'zlashma so'zni yig'ib, ularni tadqiq qilish orqali inglizcha o'zlashmalarning hozirgi kundagi holati, grammatik xususiyatlarini atroflicha o'rganib chiqdik.

BIRINCHI BOB. SO Z O'ZLASHUVI VA ULARNING O'RGANISH TARIXI.

Qariyb uch yuz yildirki , tillarning o'zaro ta'siri qonuniyatlarini aniqlash, chet

so'zlarning boshqa tillarga o'zlashishi sabablari va xususiyatlarini o'rganish, ularning o'zlashgan tillardagi ro'li va funksiyalarini belgilash kabi bir qator masalalar dunyo tilshunoslari tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Binobarin, dunyodagi mavjud rivojlangan tillarning deyarli hammasida ozmi-ko'pmi o'zlashgan so'zlar, iboralar uchrashi, hatto ayrim tillarning aralashib ketganlik xususiyatlari, avvalo, tilshunoslarning, qolaversa, tilga e'tibori bo'lgan har bir kishining diqqatini o'ziga jalb qiladi. Ayniqsa, chet so'zlarning o'zlashayotgan tilning adabiy va so'zlashuv nutqiga o'tib, hayotiy va ilmiy-zaruriy narsa va hodisalarning nomlashi, qabul qiluvchi til qonuniyatlariga tezda bo'ysunishi, o'zlashgan til egalariga yotligi bilinmay xuddi ona tilinikiday bo'lib, moslashib ketaverishi kabi obyektiv faktlar so'z o'zlashuvi masalasini tilshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biriga aylantiradi.

Keyingi ellik yil ichida bu masalaga jiddiy yondashildi. So'z o'zlashuviga bag'ishlangan katta ilmiy ishlar, yirik tadqiqotlar yuzaga keldi, etimologik va chet so'zlar lug'atlari chop etildi.

1.1. Tillar aro so'z o'zlashuvi sabablari

Dunyo tillari orasida bironta ham til yo'qki, unda ozmi, ko'pmi o'zlashgan so'z uchramasin yoki "ma lum darajada aralashgan bo'lmasin". (30; 6) Dunyo tillarining umumiy soni ham oz emas. Hozirgi davrda 2500-3000 til borligi qayd etiladi. Bu tillarning har birining o'z tarixi, taqdiri, jamiyat hayotida tutgan o'rni va mavqeyi bor. Bundan tashqari, ular o'zaro munosabat, hamkorlik, bir-biridan so'z qabul qilish va o'zlashtirish kabi xarakterlovchi belgi hamda xususiyatlarga ega. Bu masalalar, ayniqsa, qaysi sabablarga kora bir til lug'at tarkibidagi so'z ikkinchi bir tilga o'tadi, qanday qilib u qabul qiluvchi til lug'at tarkibiga o'zlashib, singishib ketadi kabi savollar tilshunoslarni qiziqtirib keldi va ularga bir qator ilmiy-umumnazariy va amaliy ishlarda yetarlicha javob berildi. Shu ishlarga asoslangan holda so'z o'zlashuvining asosiy sabablarini nomlab o'tamiz.

Uzoq o'tmishga nazar tashlansa, chet so'zlar asosan o'zga tillarga og'zaki muomila yo'li bilan (chunki yozuv bo'lmagan) o'tganligini ko'ramiz. Og'zaki muomila esa yaqin qo'shnichilikda, xalqlarning bir yerdan ikkinchi yerga ko'chib o'tishda, savdo va oldi-

sotdi ishlarida yoki juda bo'lmasa bir-birlari bilan urushlar olib borganlarida yuz bergan. Bular so'z o'zlashuvining sabablari xususiyatining bir tomonini xarakterlasa, ular, ikkinchi tomondan, xalqlar ruhiga ham bog'liq bo'lgan. Chunki “odamning qo'li va ko'ziga qaraganda, uning qulog'i va tili tez hamda aktivroqdir”. (30; 7)

Hozirgi kungi ijtimoiy hayot va ishlab chiqarishning o'sishi, sivilizatsiya va ilmiy-texnika revolutsiyasining dunyoning hamma burchaklariga shaxdam qadamlar tashlab kirib borishi, xalq va tillarning bir-biridan ajralib, aloqasiz yashashga bo'lgan imkoniyatlarini butunlay yo'qqa chiqardi. Undan tashqari, yer yuzida birorta ham xalq yo'qki, o'z taraqqiyoti davomida tashqi dunyo xalqlari muvaffaqiyatlariga e'tiborsiz qarasin va ulardan o'rganmagan bo'lsin. Tabiiyki, bular hammasi, avvalo, o'z aksini tilda va til orqali namoyon qiladi. Tilshunoslarning hisoblariga ko'ra (hozirgi kunda o'lik til hisoblangan) lotin tilida 7000 dan ortiq, nemis tilida bir necha o'n minglab, ingliz tilining yarmidan ko'pi, rus tilida on foizdan oshiq o'zlashgan so'zlar mavjud ekan. (25; 8) O'zbek tili bo'yicha F.Abdullayev quyidagi faktlarni keltiradi: “O'zbek adabiy tili leksikasi yuzasidan turli mualliflar tomonidan turli davrlar bo'yicha olib borilgan statistik hisob natijalari (1920-1970 yillar oralig'i) rus leksikasini tadrijiy sifatda o'sishi va, ayniqsa, arab tilidan olingan so'zlar miqdorining asta-sekin miqdoriy kamayishini ko'rsatadi.

Ko'pgina tilshunoslar so'z o'zlashishining asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatishadi:

- xalqlarning tarixiy aloqasi;
- yangi predmet, jarayon va tushunchani nomlash zaruriyati;
- nutqiy tejamkorlik imkoniyatiga intilish;
- ikki tildan foydalanishning alohida turi;
- chet tili so'zlarini yangilik sifatida qo'llash;
- biror millatning o'ziga xos udum yoki rasm-rusumlariga nisbatan ko'r- ko'rona ergashish;

Agar so'z o'zlashuvining aniq sabablariga to'xtalinadigan bo'linsa, birinchi navbatda, shuni aytmoq kerakki, bir til ikkinchi bir tilda birorta so'z o'zlashtirish

uchun shu o'zlashayotgan so'z qabul qiluvchi tilda bo'lmaganligi, u o'sha tilda zarur va hayotiy ehtiyoj bilan bog'liq bo'lgan narsani anglatib va ifodalab kelganligi asosiy omildir. Bu holatlar uchun odatda, o'zga tildan qabul qilinayotgan narsa, predmet, hodisa va tushunchalar bilan ularning nomlarining o'zlashuvi xarakterli hisoblanadi. Bunday paytlarda qabul qiluvchi til juda tejamkor bo'lishga intiladi, binobarin, kirib kelayotgan yangiliklarni iloji boricha, bir so'z tarzida o'zlashtiradi. Unga mahalliy tilda izoh berilib o'tirilmay, o'sha yangi narsa, hodisa yoki yangi tushuncha o'z holicha qabul qilinadi. Masalan, bifshteks, dizel, sviter, tramvay, futbol, kompyuter va boshqalar.

Geografik terminlar, ijtimoiy-siyosiy soha so'zlari, til egalarining milliy, boshqalarda yo'q va xos bo'lmagan narsa hamda hodisalarni anglatuvchi so'zlari ham so'z o'zlashuvining asosiy sabablaridan hisoblanadi. Chunki biz shu til egalari bilan munosabatda bo'lar ekanmiz, mazkur so'zlarni chetlab o'ta olmaymiz, ularsiz fikrimiz ifodalanmaydi. Masalan, leyboristlar, tred-yunionlar, bundestag, biznes, kollej, firma va boshqalar.

So'z o'zlashtirilayotgan tilda o'zlashayotgan so'zning sinonimi bo'lishi va uning parallel qo'llanishi holati ham obyektiv jarayondir. Masalan buxgalter - hisobchi, layner - samalyot, snayper - mergan, gandbol - qo'l to'pi va boshqalar. Ammo bu so'zlar bir xil ma'noni anglatadi, degan gap emas. Ular o'zlarining juz'iy ma'no bo'yoqlari, qo'llanilish o'rni va maqsadlari bilan bir-biridan farq qilishadi.

Ayrim o'zlashmalarning ma'nosi o'zlashayotgan tilda yana bir sifatlovchi talab qiladi. Shu ortiqchalik ko'pincha o'zlashmaning o'zi qo'llanilishiga olib keladi. Miting - katta yig'in, broyler - go'shtdor jo'ja va boshqalar. (9; 16)

Ko'pchilik o'zlashmalarning tub ma'nosini berish uchun iboralar yoki butun boshli gap tuzmoq kerak. Bunday hollarda o'zlashmaning o'zini qo'llash afzalroqdir, masalan, buterbrod - ustiga saryog' surtilgan yoki pishloq, kolbasa bo'lagi qo'yilgan bir bo'lak non; gol-raqib komanda darvozasiga to'pning urib kiritilishi. (9; 17)

Bundan tashqari, o'zlashayotgan so'zlar ma'nolarining qabul qiluvchi tildagi semantik o'zgarishlari, yani ularning ma'nolardagi konkretlashuvi yoki

umumiylashuvi, ma'nodagi torayish yoki kengayish, salbiy yoki ijobiy m'ano olish, polisemik so'zning monosemik yoki aksincha, monosemik so'zning polisemik bo'lib o'tishi, nutq rang -barangligini oshirish uchun qo'llanilishi kabi bir qator tomonlari borki, bular ham so'z o'zlashuvining obyektiv sabablari hisoblanadi. Yuqorida qayd qilingan so'z o'zlashuvi sabablari qatoriga hozirgi kunda yana bir manba qo'shiladi. Bu dunyoning hamma mamlakatlarida juda ko'plab axborot byuolarining tashkil qilinishi va bu byuolarning juda ko'pchilik tillar bilan ish ko'rishidir. Ular dunyoning turli burchaklarida turli tillarda kelgan xabarlarni o'z ona tilida qayta ishlashi va uni o'z xalqiga mufassal ravishda tez va aniq yetkazib berishlari kerak bo'ladi. Buning ustiga radio, televizor va boshqa ommaviy axborot vositalari qo'shib tasavvur qilinadigan bo'linsa, tillarning o'zaro aloqasi hamkorligini misli ko'rilmagan darajada oshib borayotganiga ortiqcha isbot kerak bo'lmay qoladi. Ommaviy axborot vositalari ham so'z o'zlashuvini uch xil yo'sinda: 1 o'zgarishsiz, yani o'zicha; 2 kal'kalab, so'zma-so'z tarjima qilib; 3 yarim kal'kalab, yani aralashtirib olish asosida xalqqa yetkazib beradi.

Yangi kirib kelgan so'zlarning taqdiri, yani u tola o'zlashadimi yoki bir marta aytilib, qo'llanilib ketaveradimi, mazkur so'zning mavqeiga, so'z qabul qilgan xalqning hayotiy va kundalik ehtiyojlarini ifodalash kuchiga va, qolaversa, o'zlashtiruvchi tilning ichki imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi. Bularning tahlili, avvalo, so'z o'zlashtirish va o'zlashmalar masalasiga to'xtalib o'tishni taqozo qiladi.

1.2. O'zbek tilida so'z o'zlashuvi masalalarining o'rganilishi

“O'zbek tili leksikologiyasi” kitobida rus tilshunoslaridan L. P. Krisin, N. M. Shanskiy, A. V. Kalinin, M. I. Fomina, V. V. Akulenko, N. Sharopovlarning ishlariga murojat qilingan holda so'z o'zlashtirish ta'rifiga quyidagicha fikr bildiriladi: “O'zlashtirish - bir tildan ikkinchi tilga ma lum til elementlarining ko'chishi, kirishidir”. M. D. Stepanov va I. I. Chernishevlar so'z o'zlashtirish deb, chet so'zlarning tillarga kirib kelishi, ularning o'zlashish natijasi va ularning umumiy majmuini tushunadilar.

Ma'lumki, chet tilidan kirib kelgan har bir yangi so'z tabiiy ravishda o'sha tilning

fonetik, orfografik, grammatik elagidan o'tadi. Bunda so'z o'qilishi, yozilishi va tuzilishi bo'yicha o'zlashayotgan tilning muayyan qonuniyatlari ta'siri ostida ayrim o'zgarishlarni boshidan kechiradi, ya'ni chet so'zlar qabul qiluvchi til tizimiga ma lum darajada bo'ysunadi. Ular boshqacha o'qilishi, boshqacha yozilishi, ayrim harf va tovushlarning tushirib qoldirish yoki ortiqcha qo'shib aytilishi, hatto shakli va qiyofasini butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin. O'zbek tilshunosligida bu xususiyatlar 7 xilga bo'lib o'rganiladi:

1. O'zlashma so'z uni qabul qilgan tilning praktik yozuv xususiyatlariga moslashgan bo'lishi.
2. Chet so'z o'zlashtiruvchi til grammatik sinflari, kategoriyalariga mos kelishi.
3. So'z uni qabul qilgan tilda qayta fonetik shakllanishi.
4. Chet so'z uni qabul qiluvchi tilga grammatik singishi.
5. Chet so'z uni qabul qiluvchi til so'z yasash sistemasida aktiv ishtirok etishi.
6. Chet so'z uni qabul qilgan tilga semantik jihatdan singishi:
 - a) o'zlashma so'z ma'nosi aniq bo'lishi;
 - b) o'zlashma so'z ma'nosi uni qabul qilgan tilda differentsiatsiya qilingan bo'lishi.
7. Chet so'z uni qabul qilgan tilda uzluksiz ishlatilishi kerak.

Bu yuqorida nomlangan xususiyatlar borasida tilshunoslar yakdil, ya'ni chet so'z o'zlashayotgan tilga qabul qilinib unda mustahkam o'rnashib, singishib ketishi uchun quyidagi talablar bo'yicha ular deyarli bir xil fikr bildiradilar. Ammo chet so'zlarning ular o'zlashgan tillarda nomlanishi, differentsiatsiya qilinishi, terminologik birliklarning qo'llanilishi nazarda tutilib, bu obyektiv va zaruriy faktor o'rganiladigan bo'linsa, shu paytgacha qilingan ishlarda chet so'zlar turlicha terminlar, differentsiatsiyalar ostida tahlil qilinganini ko'ramiz.

Chet so'zmi yoki o'zlashma? Bir tildan ikkinchisiga kirib kelib, chet so'zning qay darajada qabul qiluvchi tilga o'zlashib ketganligini aniqlash, ayniqsa ularni chat so'z va o'zlashmalarga ajratishning qiyin ekanligi ilmiy adabiyotlarda qayta-qayta ta'kidlab kelinmoqda. Bu masala bilan birinchilar qatorida shug'ullangan nemis tilshunoslari

o'zlashgan so'zlarni “aniq qilib chet so'z yoki o'zlashma ekanligini farqlab berish ba'zi bir sabablarga ko'ra qiyin ekanligi”, “chet so'zlar masalasi cho'g' temir ekanligi, kimki unga qo'l urmoqchi bo'lsa osongina barmoqlarini kuydirib olishi” mumkinligini uqdirishgan edi. Ta'kidlangan qiyinchiliklarga, “ogohlantirishlarga” qaramay, tilshunoslikda o'zlashgan so'zlar klassifikatsiyasi bo'yicha katta ishlar qilindi, ilmiy fikr mulohazalar bildirildi.

O'zlashgan so'zlar olimlar tomonidan, avvalo, ikki ko'rinishda, yani chet so'z va o'zlashmalarga bo'linib tahlil qilindi. Agar o'zlashgan so'z o'zi qabul qilingan tilga singishib, fonetik, orfografik, grammatik jihatdan moslashib ketsa, uni o'zlashma, begonaligicha qolaversa, uni chet so'z deb nomlashning o'zi kifoya bo'lgan bu jarayon olimlar tomonidan turlicha izohlanildi. (9; 19)

Nemis olimi E.Vassersier 15 asrgacha o'zlashgan so'zlarni “o'zlashma”, 16 asrdan keyin kirib kelgan so'zlarni “chet so'zlar” deb olmoq kerak, - deydi. Rus tilshunosi A.P.Mayorov ham bu fikrni quvvatlaydi. U chet so'zlarning nemis tilidagi leksik-semantik assimilyatsiyasi masalalarini o'rganayotib: ”Chet so'zlar ostida nemis tiliga taxminan 15 asrdan keyin kirib kelgan va o'zlarining chet tillaridan kirib kelganligini (o'qilishi, yozilishi va urg'usi bilan) bildirib turuvchi so'zlar tushuniladi”, - deydi. Ta'riflardan ko'rinib turibdiki, E.Vassersier va A.Mayorovlar chet so'zlar differentsiatsiya qilishda mezon qilib vaqtni olishgan va bir asrni belgilashgan. Fikrimizcha, bu kriteriya ishonarli emas, buning ustiga ko'p chalkashliklar bilan bog'liq. Birinchidan bu masalada kelishib, yani bir asrdan u yog'i o'zlashma va bu yog'i chet so'z bo'lsin deb klassifikatsiya qilib bo'lmaydi. Zero, bu tillarning rivojlanishi va o'zaro ta'siri qonuniyatlarini chuqurroq o'rganishdan qochish demakdir.To'g'ri, biror tilga qarashli bo'lgan so'zning ikkinchi bir tilga o'tib, unga moslashib ketishi uchun vaqt kerak.

Ammo biror asrni chegara qilib belgilash, til lug'at tarkibidagi o'zgarishlarni, so'z o'zlashtirishning o'ziga yarasha xususiyatlarini daraja-badaraja, tadrijiy o'rganishdan ko'z yumish yoki chetlab o'tishni anglatadi.

Chet so'zlarning o'zlashuvi borasida 19 asr oxirlarida nemis olimi F.Miklozix

tomonidan ikkinchi bir fikr o'rtaga tashlangan. U yozadi: “Til tarixida ikki davr farqlanmog'i kerak. Birinchi davrda boshqa til egalari bilan munosabat kam, so'z o'zlashtirish oz, til esa o'zining ichki qonuniyatlariga zid bo'lgan har bir jarayonga nisbatan o'ta sezgir bo'lgan, qabul qilingan chetki materiallarni o'z qatlamiga moslashtirgan. Ikkinchi davrda esa, chet so'zlar ko'plab, yalpi ravishda kirib kela boshlagan, til begona ta'sirga o'z sezgilarini yo'qotgan, natijada qabul qilingan yangi material o'z begona shaklini saqlab qola boshlagan”. (28; 108) F.Miklozix fikrida ilmiylik bor. Chunki so'z o'zlashuvi o'zlashgan so'zlar soni va hajmiga albatta va bevosita bog'liq bo'ladi. Lekin dunyo tillari rivojlanishining xarakterli xususiyatlaridan biri borki, u ham bo'lsa tillarning tashqi ta'siriga nisbatan, ayniqsa, undan qabul qilinadigan so'zlarni, iloji boricha, saylab olishga intiladi. Til xalqning hayotiy zarur, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini ifodalovchi so'zlarni tez qabul qiladi, o'zlashtiradi va o'ziga moslashtiradi.

Chet so'z va o'zlashmalarni aniq farqlashga harakat qilgan olimlardan yana biri V.Shmitdir. U qiziq, ammo qisqa va aniq fikr aytgan: “O'zlashgan so'zlar deb, tilga moslashib olgan, kelib chiqishini faqat etimologik tahlil orqaligina bilsa bo'ladigan so'zlarga aytiladi. Ular tilga tashqi ko'rinish, urg'usi va fleksiyasi bo'yicha moslashib olgan bo'ladilar. O'zlarining begona xususiyatini saqlab qolgan so'zlar esa chet so'zlar deb yuritiladi”. Bu fikr yaqin- yaqinlargacha tilshunoslikda umumiy va keng tarqalgan fikr edi. Keyingi yillarda chet so'zlar har tomonlama (fonetik, morfologik, semantik jihatlaridan) o'rganila boshlandi va yana ayrim qo'shimcha mulohazalar aytildi.

O'zlashmalarni fonetik jihatdan o'rgangan chex olimi B.Trnka chet so'zlarni 5ta fonologik ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish kerakligini uqtiradi. B.Trnka izlanishni ingliz tili asosida qilib, quyidagi holatlarga tilshunoslar e'tiborini tortadi:

1. ingliz tiliga xos bo'lmagan fonemalar borligi yoki tub so'zdagi fonema variantlari hisoblangan tovushlarning fonema sifatida qo'llanilishi;
2. urg'usiz bo'g'inlarda unilarning shakli saqlanishi;
3. ingliz tiliga xos bo'lmagan fonemalar birikuvi va so'zdagi fonemalar soni;
4. fonologik zidliklardan morfologik foydalanish, masalan, urg'uning almashuvi yoki

o'rni, tovushlarning almashuvi;

5. ma'lum diftonglarning qo'llanilishi;

1950 yili E.Xaugen o'zlashgan so'zlarning morfologik tuzilishini o'rganish g'oyasini ilgari suradi. U chet so'zlarni uch guruhga ajratib tahlil qilishni tavsiya qiladi:

1. Morfologik o'zgarishlarsiz, o'zlarining manba tilidagi protipiga aynan o'xshash so'zlar.
2. Morfologik jihatdan qisman o'zgargan, manba tilidagi shakliga qisman o'xshash so'zlar.
3. Morfologik jihatdan to'la o'zgargan va semantik o'zlashmalar.

K.Xeller esa o'zlashgan so'zlar klassifikatsiyasida “so'zning yozilishi, aytilishi, unu o'zlashtirgan til egalariga tanishligi, o'zlashgan tilda yangi so'zlar yasay olish qobiliyati va yangi olgan suffikslariga qarab o'zlashgan so'zlar farqlanmog'i kerak”, - deydi. (29; 14) Nemis olimining bu fikrini rus olimlaridan biri O.B. Shaxray quvvatlaydi va unga yaqin ikkinchi bir fikrni aytadi: “so'z o'zlashuvining chet so'zlar va o'zlashtirmalar guruhlariga bo'lib o'rganish yoki ularni o'zlashgan yoki o'zlashmagan deb nomlash masala

mohiyatini aniq ocha olmaydi chet tillardan qabul qilingan so'zlarni qay darajada shaklan yoki funksional, qay darajada morfologik, fonetik va orfagrafik moslashganini aniqlash va morfologik hamda aktsentologik, harf-tovush mutanosibliigi hamda so'z yasash va semantik xususiyatlarini farqlamoq kerak”.

I. Kreyn ingliz tildagi fransuzcha so'zlarni organa turib, ishida yangi “assimilyatsiyalashgan” va “assimilyatsiyalashmagan” terminlarini qo'llaydi. U ingliz tilidagi fransuzcha so'zlarni lug'at asosida statistik hajmini aniqlab, ularning fonema, garafema-fonema va morfologik o'zlashish xususiyatlarini solishtirib va taqqoslab chiqadi. U ham o'zlashgan so'zlarni uchga bo'lgan: 1) to'la assimilyatsiyalashgan; 2) yarim assimilyatsiyalashgan; 3) assimilyatsiyalashmagan so'zlar. I. Kreyn bu borada aniq va statistik natijalarni aytsa-da, ishi lug'atga asosan bo'lgani uchun fransuzcha so'zlarning ingliz tilida, ayniqsa, so'zlashuv nutqida qay darajada uchrashi, ularning

lug'at bilan semantik-sintaktik muloqoti to'g'risida kam to'xtalgan.

Endi chet so'zlarning o'zbek tilshunosligidagi klassifikatsiya masalasiga kelsak, ular ikki katta guruhga bo'lib o'rganilib kelinmoqda:

1. O' zlashma so' zlar va o' zlashmalar;
2. Qo'llanma so'zlar va qo'llanmalar;

Qo'llanma so'zlar kommunikativ va stilistik funksiyasiga kora, o'z navbatida, ya'ni ikki tipga bo'lib o'rganiladi: 1) ekzotik leksika yoki ekzotizmlar; 2) kiritma so'z va iboralar, ya'ni chet til kiritmalari. Ikkinchi bir xil klassifikatsiya va ta'rifni M. Mukarramov bildiradi: “Og'zaki va yozma nutqlar orqali o'tib, yangi tushunchalarni ifodalaydigan va lug'atlarda qayd etiladigan til birikmalari o'zlashgan... buning aksi yozma va og'zaki nutq formalari orqali bir tildan ikkinchi bir tilga o'tmagan, ya'ni ma'no va tushunchalarni ifodalamaydigan, lug'atlarda qayd etilmaydigan o'zga til birikmalari o'zlashmagan so'zlar sanaladi”. (10; 33) Chet so'zlar klassifikatsiyasi, ularni chet so'z va o'zlashmalarga bo'lib o'rganish borasida aytilgan fikrlarni xulosalab shuni aytish mumkinki, tilshunoslar tilning bu obyektiv va zaruriy qonuniyatini turli davrda va turli nuqtayi nazardan turib tahlil qilganlar, ishlarida turlicha atama va terminlar qo'llaganlar. Bu tabiiy hol. Chunki har bir tilning chet so'zlarga munosabati ularni qabul qilishi va o'ziga moslab olishi turlicha o'ziga xos kechadi.

“O'zbek tilshunosligida bu masalalarning o'rganilishiga kelsak, chet so'zlarning fonetik, morfologik xususiyatlari kengroq o'rganiladi. Lekin ularning mazmuni planida yuz beradigan o'zgarishlar, ya'ni chet so'zlarning semantik adaptatsiya masalasi hali jiddiy tadqiqotlar obyekti bo'lgani yo'q”. (12; 28)

Qo'shimcha qilib yana shuni aytish kerakki, tillarning o'zaro munosabati va so'z o'zlashuvi faqat og'zaki muomalada emas, balki qardosh va chet el adabiyotining mutolasida va tarjimachilik faoliyatida ham keng miqyosda ishtirok etishni taqozo etadi. Bundan tashqari, o'zbek tili bilan yaqin aloqada bo'lgan tillarning o'zbek tili taraqqiyotiga ta'siri, o'sha tillardan “...o'zbek tiliga qabul qilingan so'z va formalar, ma'no va stilistik bo'yoqlarning miqdorida emas, balki o'zbek tilining o'z

imkoniyatlarini ham aktivlashtirganida, ijodiy kuzatganida ham” ko'rinmoqda. (19; 4)

Bu masalalar o'zbek tilshunosligida anchadan beri olimlarimizning diqqatini o'ziga tortib keldi. Sharqshunos A. K. Borovkovning “O'zbek adabiy tili 1905-1917 yillarda” nomli yirik asarida olim so'z o'zlashtirilish masalalariga o'zbek tilshunosligida birinchi bo'lib katta e'tibor berdi: “...biron bir xalqning aqliy kamolatini aniqlash uchun uning tilini o'rganishning o'zi yetarlidir, agar tilda biror fan sohasiga oid sotsial iboralar bo'lsa bu fan ayni shu tilda gapiradigan xalq tomonidan yaratilgan deb komil ishonch bilan aytish mumkin. Va aksincha, agar biror bir narsa nomi mazkur xalqning o'ziniki bo'lmay, boshqa xalq tilidan olingan bo'lsa, demak, o'sha predmetning o'zi ham shu xalqda bo'lmagan”. (22; 10) M. Mirzayev, M. Po'latov, R. Doniyorov, I. Rasulov, G. Muhammadjonov va

S. Akbarovlar o'zlarining yuqorida nomlangan ilmiy ishlarida rus tili va o'zbek tilining o'zaro aloqalarini atroflicha o'rganib chiqib, rus tili orqali tilimizga boshqa tillardan kirib kelgan til birliklarini o'rganishni alohida ta'kidlashdi. Bu borada dastlabki ishlardan biri U. Usmonov va R. Doniyorovning “Ruscha- internatsional so'zlarning lug'ati” o'zlashma so'zlarning lug'aviy ma'nolarini talqin etishda katta voqea bo'ldi. O. Usmonov va Sh. Hamidovning “O'zbek tili leksikasi tarixidan” nomli asari chop etildi. Bu yirik tadqiqot 19-asrning oxiri 20- asrning boshlarida o'zbek tili lug'ati tarkibida yuz bergan o'zgarishlarni, xususan rus tilining o'zbek tili taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'sirini yoritish masalasiga bag'ishlanadi.

Qayd qilingan ishlarda asosan rus tilining o'zbek tiliga ta'siri va hamkorligi masalalari o'rganilgan. O'zbek tiliga rus tili orqali G'arbiy Yevropa tillaridan kirib kelgan so'zlar atroflicha o'rganilmagan. O'zbek tilshunosligi uchun “bu masalalar aktual bo'lib, ularga ilmiy jamoatchilikning diqqat e'tiborini jalb qilish kerak. Ular ilmiy nazariy nuqtai nazardan hal etilib, o'zbek tiliga chetdan kirgan so'zlarning o'zlashtirilishini tartibga tushirish lozim”. (19; 4) Bu esa, avvalo, so'z o'zlashuvi sabablarini o'rganishni taqozo qiladi.

Masalaning o'zbek tilshunosligida o'rganilishiga kelsak, bu borada ayrim fikr-mulohazalar bildirishga to'g'ri keladi. Avvalo, bu hodisaning nomlanishining “ismi

jismiga monandligi” haqida. Tilimizdagi o'zga qatlam elementlarini chet so'zlar deb nomlanishi to'g'ri, chunki bu so'zlar begona, yot, xorijiy tillardan bo'lib, bizga sirdan, chetdan kelganlar. Ammo ularning keyingi klassifikatsiyasi, ya'ni o'zlashgan so'zlar va o'zlashmalar, qo'llangan so'zlar va qo'llanmalar deb atalishi va mazkur guruhlariga bo'linib o'rganilishi e'tirozlidir. Ma'lumki, “o'zlashma” so'zi o'zlashmoq va o'zlashtirmoq felining o'zagi va -ma yuklamasidan yasalgan bo'lib, o'zlashmoq so'zi quyidagi ma'nolarga ega: 1. O'z kishisi bo'lib qolmoq, juda inoqlashmoq. 2. Ongiga yetib bormoq, tushunarli bo'lmoq; singmoq.

O'zlashtirmoq so'zi esa quyidagi ma'nolarda qo'llaniladi. 1. O'zlashmoq. 2. Foydalansa bo'ladigan qilmoq, ishiga yaroqli holatga keltirmoq. 3. Boshqaga qarashli narsani o'ziniki qilib olmoq, egallamoq.

“O'zlashma” termini ma'nosini o'zlashmoq va o'zlashtirmoq fellarining anglatadigan ma'nolari bilan taqqoslaydigan bo'lsak, u asosan birinchi va uchinchi punktlarga va qisman qolgan boshqa punktdagilarga ham to'g'ri keladi. Lekin har qanday chet so'z o'zi o'zlashayotgan tilda qanchalik darajada “yaroqli va foydalansa bo'ladigan qilinmasin”, qanchalik darajada “til egalari ongiga yetib borib, ular uchun tushunarli bo'lmasin”, qanchalik darajada “inoqlashib, singishib, o'ziniki bo'lib olmasin”, qanchalik darajada “shaklan va mazmunan o'zgarmasin”, u etimologik jihatdan bari bir chet so'zdir.

Tabiiyki, chet so'z qabul qiluvchi til ta'siri ostida o'zining aytilishi, yozilishi, so'z yasash xususiyatlari va ma'no mazmunlarini, ozmi-ko'pmi o'zgartiradi. Shu o'zgarishlar, chet so'zni qabul qilayotgan tilning bevosita ta'siri ostida sodir bo'lganligi sababli, uni o'zlashtirayotgan tilga dahldor va uniki hisoblanadi. Demak, chet so'z biznikiga aylanmaydi, balki uning o'zgargan imlosi, o'zgargan talaffuzi, yangi so'z yasash imkoniyati va yangi kasb etgan ma'nosigina o'zlashgan bo'ladi. Vaholanki, chet so'zning bu yangi xususiyatlari uni o'zlashtirayotgan tilning mahsulidir. Shuning uchun tilda o'zlashma terminining qo'llanilishi, chet so'zning u kirib kelgan til ta'siriosida yuzaga kelgan yangi sifat va belgilariga, yangi ma'no mazmunlariga aloqador bo'lishi kerak. Nainki, chet so'zning o'ziga nisbatan, ayniqsa, u qabul qilinish

jarayonida biron-bir o'zgarishga uchramagan bo'lsa yoki uchramasa, endi uni o'zlashdi, biznikiga aylandi, deb bo'lmaydi. U faqat o'zi kirib kelgan tildagi avvaldan qo'llanilib kelayotgan chet so'zlar qatlamidan o'rin olgan bo'ladi, xolos. Zero, u aynan o'zlashtirilmaydi, balki qabul qilinadi yoki kirib keladi.

Demak, “o'zlashtirish hodisasi, asosan so'z o'zlashtirishdan iborat” emas, balki chet so'zlarning imlo va talaffuzi, so'z yasash xususiyatlari va ma'nolarini o'zlashtirishdir. Endi qo'llanma so'z haqida. Bu terminlarga berilgan ta'rif, ya'ni ularning o'zi qo'llanilayotgan tilniki emasligi, faqat bu til matnlarida ishlatilayotganligining o'zi qo'llanma so'zlar iborasini inkor qilib, ularni chet so'zlar deyishni taqozo qiladi. Qolaversa, chet so'zlarning ekzotikligi, ya'ni ularning uzoq mamlakatlarga xos bo'lib, boshqalarga g'alati tuyulishi, qiziq urf- odatlarni anglatishi yoki ekzotik emasligining so'z o'zlashtirish masalalari bilan bevosita aloqasi kam.

Chet so'zlarning qo'llanilish sabablarini asosan funksional vazifalardan izlamoq kerak. Fikrimizcha, chet so'zlar klassifikatsiya qilinganda, ularning qabul qiluvchi tilga qay darajada singishib ketganligi, ya'ni ularning aytilishi, yozilishi, yangi qo'shimchalar olishi va so'z yasay bilishi, ma'no o'zgarishlari (ko'chma ma'nolar kasb etishi) kabi xususiyatlarni qay darajada o'zgarib, o'zlashib ketganligini farqlab o'rganmoq kerak. Bular uchun asosiy mezon - chet so'zlarning o'zlashgan tillardagi o'rni, til egalari uchun hayotiy muhim narsa va hodisalarni ifodalay olish kuchi, ularning qiziqish va ehtiyojlarini qoplay olish darajasi bo'lmog'i lozim. (9; 25-26)

Shundagina chet so'zlar ko'p qo'llaniladi, tilning struktural-semantik qoidalariga tez moslashadi, qo'shilib singishib ketadi va yana ravnaq topadi.

1.3. O'zbek tilida so'z o'zlashuvi xususiyatlari

Insoniyat ong - tafakkuri o' sishi, fan yutuqlarinig globallashuvi va amaliyotga tez tatbiq etilishi, olamshumul ixtiro va texnologiyalarning ommaga tez va oson yetib borishida tilga bo'lgan ehyiyoj yanada ortib, tilshunoslar oldiga yangi va o'z navbatida murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Bunga til birliklarini paradigmalrga birlashtirish, tillararo sun'iy intellektni shakllantirish kabi masalalar kiradi.

O'zbek tilini nazariy jihatdan o'rganish darajasi haqida fikr yuritilar ekan, o'zbek

tilshunosligining jahon tilshunosligiga qo'shgan hissasini taniqli tilshunoslarimizning qilgan ishlari orqali bilib olishimiz mumkin. Biroq yechimi kutayotgan muammolar ko'p, hali qilinmagan ishlar yetarli. Bizga falsafiy kategoriya sifatida ma'lumki, jamiyatda zarur bo'lgan talabning qondirilishi uning davomiyligini ko'rsatuvchi boshqa ehtiyojga yo'l ochiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov davlat tili masalasini davlat ramzlari sifatida qarashga o'z fikrini bildirib, milliy til va uning milliy mafkuradagi o'rnini masalasiga alohida e'tabor qaratadi: “Jamiki ezgu xislatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili - bu millatning ruhidir. O'z ruhini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan ayrilishi muqarrar”.

Ma'lumki, til millatning ma'naviyati bilan bevosita aloqadordir. Dunyo tillari orasida sof tilning o'zi yo'q ekan, ma lum bir tilning tarovati o'z til so'zlari hisobiga yashashi bilangina belgilanmaydi. Harakatdagi tillarning birini ikkinchisiga ta'sir etib borishi til jarayoni uchun barqaror qonuniyatlardan biri hisoblanadi. Tilning ma'naviyat tushunchasi bilan uzviy bog' liqligi nuqtayi nazaridan o'zlashma so'z va uning zamirida o'zlashayotgan malum bir millat urf- odat va an'analariga befarq qarab bo'lmaydi.

Hozirgi o'zbek tili lug'at tarkibidagi so'zlarning paydo bo'lishi va kelib chiqishi turlichadir. Har bir til o'z lug'at tarkibi va grammatik qoidalariga ega bo'ladi. Biroq xalqlar orasidagi ijtimoiy-siyosiy aloqalar tillarga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu holat, tilning lug'at tarkibida yaqqol seziladi. Barcha tillar singari o'zbek tilida ham bu holat yuz bergan bo'lib, buning natijasida tilimizning lug'at tarkibida o'ziga xos qatlam bilan birga boshqa tillardan o'zlashgan qatlam ham ko'plab uchraydi.

O'zbek tili leksik taraqqiyotini ham jamiyatdagi muhim o'zgarishlarni hisobga olgan holda malum bir davr bosqichlari asosida o'rganish mumkin. Turkiy til sifatida yuritilgan o'zbek tili tarixan O'rta Osiyo hududi xalqlari uchun bir necha asr mobaynida fors tili bilan bir vaqtda iste'molda bo'ldi. Uzoq vaqtli muloqat natijasida til omuxtalashishi sezilarli darajada har ikkala til leksik qatlamiga ham ta'sir qildi. O'zbek leksik qatlamiga yangi so'zlar, forsiy izofalar, iboralar, hattoki so'z yasovchi

qo'shimchalar ham kirib keldi. Bunday s'zlar, avvalo, mavhum, keyinchalik ularning ko'pchiligi o'z qatlam so'zlari kabi tilimizga moslashib, ajratib bo'lmas holatda o'rinlashdi. Natijada o'zlashma so'zlar ko'p asrlik nutq jarayonida sinonimik, antonimik, giponimik munosabatlarga kirishib ketdi.

O'zbek tili leksikasida arabcha o'zlashmali so'zlar o'ziga xos tizimga ega. Hozirgi o'zbek tilidagi arabcha o'zlashma so'zlar semantic tuzilishidagi o'zgarishlar tilshunos olim T.Rahmonov tomonidan maxsus tadqiq qilingan. O'zbek tili leksikasidagi ba'zi o'zlashmalar poetik jihatdan boshqacha qiyofaga kirib, aslida arabcha so'z ekanligi unutiladi.

19- 20 asrlarda jamiyat hayotida yuz bergan tarixiy o'zgarishlar tilda ham o'z ifodasini topdi. Bu davr so'zlarning o'zlashishi va so'zlarning iste'moldan chiqish jarayonini yanada tezlashtirib yubordi. Bu davrning o'ziga xos xususiyati shundaki, tilimizga faqat rus so'zlari emas, balki ko'plab inglizcha, xitoycha, fransuzcha, ispancha so'zlar rus tili ortqali kirib kelgan va leksikamizdagi ko'p miqdordagi forsha-arabcha so'zlar iste'moldan chiqib ketdi.

20- asr o'zbek tilshunosligi uchun rivojlanish asri bo'ldi. Ona tili darsliklarining yaratilishi, tilshunoslik nazariyasi bo'yicha tadqiqotlar olib borilishi, ilmiy jurnallarning nashr etilishi, ilmiy maqolalarning yozilishi, filologik lug'atlarning chop etilishi o'zbek tilshunoslari tomonidan yaratilgan ulkan meros hisoblanadi.

O'tgan yuz yil ichida jamiyat taraqqiyoti tezlashdi. Insonlar ongi, dunyoqarashi soddalikdan murakkablikka qarab o'zgardi. Shuningdek, insonlarning kundalik iste'moldagi so'zlari ham nutqiy rivojlanishda bo'ldi. Shunga muvofiq zamoniviy lug'atlarga bo'lgan ehtiyoj ham kuchaydi. (5; 20)

O'tgan asr tilshunosligi borasida qilingan ishlar rus tilshunosligi bilan bevosita bog'liq. Birgina tilshunoslikning leksikografiya sohasini oladigan bo'lsak, mavjud lug'atlarning deyarli ko'pchiligi rus tili lug'atlari andazasida yaratiladi. Yaratilgan lug'atlar ilm-fan yutug'idir. Biroq bu lug'atlarning ayrimlari tilimizning ontologik xususiyati, milliy xalq madaniyati asosida qayta ishlab chiqishi zarur masala bo'lib qolmoqda. O'tgan asrning 80-yillariga kelib o'zbek lug'atchiligi borasidagi ishlar

susaydi, ilm-fan yangiliklari, leksikografiya sohasidagi nazariy ishlar amaliyotga tatbiq etilmadi, zamonaviy yangi lug'at turlari yaratilmadi, tilda mavjud lug'atlar mukammallashtirilib qayta ishlanmadi, yig'ilgan tajribalarni amaliyotga tatbiq etish ishlari amalga oshirilmadi. Natijada o'zbek lug'atchiligi jahon lug'atchiligidan qolib ketdi. Aniqroq qilib aytganda, leksikografiyada keyingi davr o'zgarishlari to'xtab, bu sohada keskin o'zgarishlar shu davrdan so'ng kuchli sezilmadi.

Tilda so'z o'zlashish jarayoni, asosan, xalqaro aloqalarning kengayishi, bozor munosabatlari shakllanishi, mafkuraviy yoki ijtimoiy aloqalar doirasida yangi tushunchalarni ifodalash ehtiyoji, jamiyatning ma'lum bir tuzumdan yangi shaklga o'tish bilan bog'liqdir.

Ko'p asrlik taraqqiyotga ega bo'lgan o'zbek tili ko'plab tillarning o'zlashma so'zlari hisobiga boyimoqda va ko'plab tillarga o'z fondidan so'z berib kelmoqda. So'z o'zlashish jarayoni har bir tilga xos bo'lgan qonuniyatdir. Dunyo tillari orasidagi ijtimoiy-madaniy, ma'naviy sohalar asosida to'xtovsiz harakatda bo'ladi. Hattoki hozirgi ingliz tilida ham o'zlashma qatlam so'zlari taxminan 60 foizdan ortiq ekanini manbalarda takidlanadi. Ingliz tili hind-yevropa tillari oilasining german guruhiga kiradi. Inglizcha so'zlarning o'zlashishi nafaqat o'zbek tiliga, balki sobiq ittifoq tarkibidagi rus, chechen va boshqa tillarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Biroq rus tili ingliz tili singari hind-yevropa tillari oilasiga mansub shuning uchun ularda bu tilning ta'siri tilimizga nisbatan faolroq sezilishi mumkin.

O'zbek tiliga inglizcha o'zlashma so'zlarning o'zlashish yo'llari turlichadir. Qator yangi tushunchalar va hodisalar aynan o'zbekcha nomlanishga ega bo'lmasa yoki o'zlashma so'z tushunchaning turli qirralarini ifodalash va nomlash jihatidan o'zining ijobiy ta'siriga ega bo'lsa, to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirish yoki aynan o'zlashtirish usulidan foydalanilmoqda. Masalan, chat- suhbat, mani (money)-pul kabi so'zlar ham ayrim reklama, bolalar kiyim-kechak yoki aholi e'tiborini tortuvchi buyumlarda aks etadi. O'zlashma so'zning o'zlashgan tilda sinonimi bo'lsa, uning qo'llanishi uchun turli sabablar mavjud. Ya'ni, sinonim sifatida kirib kelgan so'z tilda termin sifatida yashaydi, yoki uslubiy ma'no ifodalovchi so'z bo'ladi. Ingliz va rus tillari bir til

oilasiga mansub bo'lganligi uchun inglizcha so'zlarning rus tilida o'zlashish jarayoni o'zbek tiliga nisbatan faolroqdir. Tilshunos olimlar ta'kidlaganidek, ko'pchilik inglizcha o'zlashmalar tilda, avvalo, muvaqqat xarakterga ega bo'ladi, vaqt o'tishi bilan okkazonal neologizmlar o'zining ikki tillilik xususiyatini kengaytira boshlaydi. Hozirgi paytda gazeta, jurnal va teleko'rsatuvlarda muhlislarni o'ziga tortadigan mavzular nomi inglizcha so'zlar va ularning urf-odatlar bilan bog'liq holatlar tez ko'zga tashlanadi. Mashhur siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar ham o'zlarining nutqlarida inglizcha o'zlashmalarga murojat qilib turishadi. (5; 28)

Manbalarda so'z o'zlashishining ikki yo'li borligi ta'kidlanadi:

1. jonli so'z o'zlashuv orqali so'z o'zlashtirilishi. Bunda boshqa til so'zlari o'zbek tiliga mahalliy aholining og'zaki nutqi orqali o'tadi. Masalan, ruscha rami, klubnika so'zlari o'zbek tilining jonli so'zlashuvidan rom, qulubnay deb talaffuz qilingan, keyinchalik o'zbek adabiy tiliga ham shu shaklda o'zlashgan.
2. bosma manbalar orqali so'z o'zlashtirish. Bunda boshqa tidagi matnni o'zbek tiliga tarjima qilish yoki o'zbek tilida yozilgan maqolalarda, ilmiy va badiiy asarlarda boshqa til so'zlarini (ayniqsa, termin va atamalar) ishlatish orqali bo'ladigan o'zlashtirish nazarda tutiladi. Matematikadagi katet, gipotenuza, adabiyotdagi kulminatsiya, syujet kabi terminlar, ocherk, roman kabi so'zlar shu yo'l bilan o'zlashtirilgandir.

O'zbek tili leksikasi bugungi kunga qadar til taraqqiyoti natijasida doimiy o'z ichki imkoniyatlari asosida o'zga tillardan so'z olish, eskirgan so'zlarning chiqib ketishi kabi o'zgarishlar hisobiga tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tmoqda. Xalqlarning o'zaro ma'daniy, siyosiy aloqalari tillarning omuxtalashish holatiga sabab bo'ladi. O'zbek tili leksikasiga yangi so'zlar, so'z birikmalari, iboralar hattoki so'z yasovchi qo'shimchalar ham kirib keldi. Bunday so'zlar avvalo mavhum, keyinchalik ularning ko'pchiligi o'z qatlam so'zlari kabi tilimizga moslashib, ajratib bo'lmas holatda o'rinlashdi. Buning sababi o'zlashma so'zlarning tilda ko'p asrlik nutq jarayoni va til tizimidagi sinonimik, giponomik, bir so'zning faollashuvi ikkinchi so'zni passivlashishi jarayoni kabi munosabatlar hisobiga barqaror qolgan deyish mumkin.

19-20 asrlarda jamiyat hayotida boshlangan o'zgarishlar tilimizda ham o'z aksini bera boshladi. Bu davr so'zlarning o'zlashish va so'zlarning chiqib ketish jarayonining tezlashgan davri bo'ldi. 20 asrda maktablar tashkil etilishi, ommaviy savod chiqarish, gazeta va jurnallarning chop etilishi kabi omillar asosida bu holat yanada tezlashdi. Bu davrning muhim xususiyati shundaki, tilimizga nafaqat ruscha so'zlar, balki inglizcha, fransuzcha, italyancha va boshqa tillardan so'zlar kirib keldi. O'zlashma so'zlar dastlab neologizm xarakterida bo'lsa-da, keyinchalik asta-sekin qabul qiluvchi til qonuniyatlariga bo'ysunishi, xuddi o'z so'zidek, tabiiy va aniq bo'lishi, fonetik qayta shakllanishi, grammatik singishi, so'z yasash tizimida faol ishtirok etishi tufayli uning yot elementlari sezilmay qoladi.

Tilimiz leksik taraqqiyotining navbatdagi bosqichi mustaqilik davri bilan bog'liqdir. Jamiyatimiz har bir sohasida boshlangan tub islohatlar, xalqaro madaniy, iqtisodiy, siyosiy aloqalar ma lum til o'zgarishlariga, tilimiz taraqqiyotiga yo'l ochdi. Muhimi shundaki, bu davrga kelib, turli tillarga oid rang-barang soha so'zlari kirib kelishi kuchaydi. Dunyo tillarini o'rganish bilan birga ularning milliy-madaniy an'analari, urf-odatlariga muvofiq tushuncha va so'zlarning o'zlashishi tilimiz lug'at boyligini oshirdi.

Yuqoridagilarga muvofiq o'zbek leksikasi taraqqiyotini ma lum bosqichlar asosida davrlashtirish mumkin:

1. 15-asrgacha turkiy tilga fors-tojik tilining ta'siri.
2. 8-10 asrlarda turkiy tilga arab tilining ta'siri.
3. 20-asrda o'zbek tiliga rus tilining ta' siri.
4. istiqoldan so'ng o'zbek tiliga turli tillar, xususan ingliz tilining ta' siri.

O'zlashma so'zlar borasidagi yana bir muhim masala shuki, mustaqillikdan so'ng tilimiz turli davlat bilan ijtimoiy, iqtisodiy soha hamkorligi natijasida, mavjud tillarning so'zlari hisobiga kengayayotganini ta'kidlash joiz. Ilm-fan texnik taraqqiyot ta'siri natijasida tilimiz so'zlari miqdori, xususan, inglizcha va boshqa til so'zlari hisobiga ham boyib borayotgani tilshunoslarning diqqat- markazida turibdi. Mustaqillikdan so'ng tilimizga brifing-briefing, injenereng- engineering, imej-image,

visual-visual kabi inglizcha o'zlashma so'zlarning kirib kelishi qanchalik ko'paygan bo'lsa, ministr, oblast, rayon kabi ko'pgina so'zlarning o'zbek leksik qatlamidan chiqib ketishi ham shunchalik tezlashdi. Kundalik so'zlashuvda ishlatilayotgan va qo'llanilishi faol bo'lgan ayrim leksemalarning "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan joy olmaganini ko'rish mumkin. Masalan, imij, minimarket, chizburger, xot-dog, chipsi, flesh xotira, vay-fay, internet kabi ko'plab leksemalar ham izohli lug'atimizdan joy olishi zarur. (5; 39-40)

Ba'zi o'zbek tiliga o'zlashgan inglizcha o'zlashmalarning bir guruhi o'zbek tili leksikasida asl lug'aviy ma'nosini butunlay yo'qotib, etimologik ma'no va tushunchasi bilan aloqador bo'lmagan boshqa semantik birlikka aylangan . Bunday xarakterdagi so'zlar asl fonetik va morfologik qiyofalarini o'zgartirmagan. Shunday bo'lsada, ular ingliz va o'zbek tilida semantik yaqinlikka ega bo'lmaydi. So'zning o'z tildagi ma'nosi bilan o'zlashgan tildagi ma'nolari orasida bog'liqlik unutiladi. Aytish joizki, tilimizga ingliz tilidan o'zlashgan so'zlarning o'zlashishida ularning semantik tuzilishdagi o'zgarishlari ham turlicha bo'lishi kuzatiladi. Ba'zi so'zlar tilda o'z ma'nosini saqlab qolgan o'zlashmalar sifatida o'rinlashsa, ba'zilari ma'no kengayishi, ma'no torayishi yoki yangi ma'no kasb etishi mumkin.

Umuman olganda, tilimizdagi o'zlashmalar haqida fikr yuritilganda tilshunos olim N.Mahmudov takidlaganidek, o'zbek tilidagi xorijiy o'zlashmalarning me'yor va milliyligi masalasi ma'naviy sohalar doirasida favqulodda ahamiyatga molik ekanligini hamisha yodda tutish lozim.

1.4. Ingliz tilida so'z o'zlashuvi xususiyati

15 asrda ingliz tili qo'lyozmalarida uni boshqa bir necha tillar xususan, lotin tili, fransuz va eski skandinavian tillari bilan aloqada bo'lganligi haqida yozilgan. Bu manbalardan so'z qo'shilishi bir necha tarixiy sabablardan dalolat beradi. Rim sivilizatsiyasining katta ta'siri tufayli lotin tili Angliyada ta'lim va din tili sifatida uzoq vaqt foydalanilgan. Eski skandinavian tili 9-10 va 11- asrning birinchi yarmida mahalliy aholiga tezda singishib ketgan, shuningdek o'zlari bilan ilg'or feodalizm ya'ni yuqori ijtimoiy tizim haqidagi yangi tushunchalarni olib kelgan

mustamlakachilar tili edi. Boshqa mustamlakachilarning tili bo'lgan fransuz tili 11-asrning o'rtalaridan 14-asrning oxirigacha yuqori tabaqa vakillari, maktab ta'limi va rasmiy hujjatlarning asosiy tili edi.

Ingliz tilida o'zlashma elementlarni o'rganishda asosiy urg'u o'rta asrlar ingliz davrida mavjud bo'lgan qoidaga asoslandi. Keyingi davrlarda o'zlashmalar faqat yaqin yillardagi tadqiqotlarning maqsadi bo'ldi. O'zlashmalar oqimi uzluksiz va davomli bo'ldi. O'zlashmalarning eng katta miqdori fransuz tilidan kirib kelgan. Ular ijtimoiy - siyosiy, ilmiy va madaniy hayotdagi turli sohalarni tasvirlaydi. O'zlashmalarning katta qismi ilmiy va texnik atamalardir.

Ko'pchilik o'zlashma so'zlar odamlar o'rtasidagi aloqalar va ularning madaniyat darajasi haqida bizga aytadi. U shunga sabab bo'ladiki, o'zlashmalar tez-tez tarixning muhim hodisasi deb nomlanadi. Agar biz ingliz tilidagi o'zlashmalar ro'yxatini tekshirsak, ular ma'nosiga qarab guruhlanadi, shunda biz Angliyaning boshqa millatlar bilan aloqasi haqida ko'pgina qimmatli ma'lumotlarni qo'lga kiritamiz. Ba'zi bir o'zlashmalar aniq tarixiy holatlarning to'g'ri ta'sirini tushuntirib bera olmaydi, ular yangi narsa va g'oya bo'la olmaydi. Masalan air - havo, place - joy, brave - jasur so'zlari fransuz tilidan o'zlashgan.

Shuni ta'kidlash kerakki sof linguistik xususiyatlarni ahamiyatli darajalari bilan o'rganilgan turli tillardan o'zlashmani umumiy tarixiy sabablari haligacha tadqiq qilinmoqda. Ko'pgina o'zlashmalar faqat tarixiy hodisaga bog'liq emas, balki aloqamunosabatlarni xarakteri davomiyligi, shuningdek tillarning irsiy va strukturaviy yaqinlik darajasiga aloqador. Tillar qanchalik yaqin va aniq bo'lsa ta'sir shunchalik chuqur bo'ladi. Ingliz tilida skandinavian va fransuz tili o'rtasidagi ta'sirni taqqoslash yaxshi baholangan. Eski ingliz tiliga yaqindan bog'langan skandinavian tillarini ta'siri ostida ba'zi guruh so'zlari bog'langan yoki bog'lanmagan tillardan o'zlashgan (they, their, them kabi olmoshlar); bir qancha skandinavian o'zlashmalari milliy so'zlardan yasalgandek tuyuladi (ularning o'zaki bir xil bo'lganligi uchun ular o'rtasidagi bog'liqlik osonlik bilan ko'rinadi), masalan, drop - drip (scand), true - tryst (scand); Ingliz tilining grammatik tuzilishining rivojlanishida skandinavian so'zlarining ta'sir

darajasi tezlashdi.

O'lashmalar tilga ikki yo'l orqali kirib keladi: og'zaki nutq orqali (odamlar o'rtasidagi tez aloqa orqali) va yozma nutq orqali (kitoblar orasidagi bilvosita aloqa orqali).

Og'zaki o'zlashmalar asosan tarixning dastlabki davrlarida sodir bo'lgan. Yaqin yillarda yozma o'zlashmalar muhim ahamiyat kasb etdi og'zaki o'zlashgan so'zlar odatda qisqa bo'ladi (inch, mill, street) va ular foydalanish jarayonida katta o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Yozma o'zlashmalar o'zlarining talaffuzi, tovush shakllarining ba'zi xususiyatlarini saqlab qoladi va ularning assimilatsiyasi uzoq va qiyin jarayondir. (7; 114)

O'zlashmalarning belgilari

O'zlashma so'zlar uzoq davrlardagi ba'zi o'zgarishlarni saqlaydi va foydalanilayotgan tildagi o'zgarishlarni boshidan kechiradi. Bu so'zlarni o'zlashma elementga doirligini aniqlash uchun ba'zi mezonlar ustida ishlashga undaydi. Ba'zi holatlarda so'z talaffuzi, g'alati tovush, tovush birikmalari, urg'u holati, uni talaffuz qilish va harflar va tovushlar o'rtasidagi o'zaro munosabat haqiqiy chet so'zning belgisidir. Buquyidagi holatlarda waltz (G), psychology (Gr), souffle (Fr) seziladi. V, dz, z tovushlar yoki x, j, z harflarni dastlabki holati so'zlarni olinma ekanligini asosiy belgisidir. Masalan volcano (It.), vase (Fr.), vaccine (L.), jungle (Hindi), gesture (L.), giant (OFr), zero (Fr.), zeal (L.).

So'zni morfologik strukturasi va grammatik shakllari so'zni boshqa tildan o'zlashganligidan dalolat beradi. Masalan, neurosis va violoncello so'zlaridagi suffikslar so'zlarni o'zlashma ekanligiga zid keladi. Bu yana papyri, pastorali, beaux, bacteria kabi so'zlarni noto'g'ri ko'plik formalari uchun ham xosdir.

So'nggisi so'zlarning leksik ma'nolari. Masalan, ricksha, pagoda singari so'zlardan aniqlanadigan tushuncha bizni o'zlashmalar bilan doimo aloqador bo'lishga undaydi.

Bu mezonlar har doim ham ma'qul emas. Dastlabki o'zlashmalar shu darajada o'xshash bo'lganki, tarixiy jihatdan tahlil qilmay farqlab bo'lmaydi. Masalan: chalk, mile (L), ill, ugly (Scand), enemy, car (Fr) kabi so'zlar. Shuni ham hisobga olish

keraki tillar o'rtasidagi aloqa qanchalik yaqin bo'lsa, o'zlashmalar o'rtasidagi farqni farqlash shunchalik qiyin bo'ladi. Ba'zan zamonzviy ingliz tilida so'z shakli va uning ma'nosi bizni o'zlashma manbani tezda farqlashimizga imkoniyat beradi. Masalan, ch tovushi sh sifatida talaffuz qilinganda u fransuz o'zlashmasi ekanligidan dalolat beradi (echelon, chauffeur, chef); agar u k deb talaffuz qilinsa yunon tilidan o'zlashganligidan dalolat beradi (archaic, architect, chronology).

O'zlashmalarning assimilatsiyasi

O'zlashmalar o'zlarining xususiyatlariga qanday moslashgani va ingliz tilidagi muhim o'zgarishlarni tahlil qilish jarayonini boshidan kechirgan. O'zlashgan elementlarning barcha o'zgarishlari ikki katta guruhga bo'linadi. Bir tomondan bu yerda faqat aniq o'zlashgan so'zlarning o'zgarishlari bor. Bu o'zgarishlarning maqsadi o'zlashayotgan til me'yorlariga begona so'zlarni moslashtirish. Masalan, yunoncha pneumatics, psychology, Ptolemy so'zlaridagi (pn), (ps), (pt) kabi undosh birikmalarining kelib chiqishi, (n), (s), (t) ga soddalashtirilgan bo'lib, (ps), (pt), (pn) undosh birikmalari inglizcha (sleep, stop so'zlari) oxirida tez-tez uchraydi, hech qachon dastlabki o'rinda foydalanilmaydi.

Lotin o'zlashmalaridagi -ar, -or, -ator suffikslari eski ingliz tilidagi -ere suffiksi o'rnini egallagan. Masalan, L. Caesar - OE. Casere, L. sutor - OE. sutere.

Ko'plik -s shaklini oladigan ko'pchilik otlar analogik jihatga ko'ra o'zlashmalarning haqiqiy ko'pliki o'rniga quyidagi tuslanishni afzal ko'radi. Masalan, soviets, bolsheviks, kolkhozes, sputniks so'zlari bu jarayonga misol bo'la oladi.

Boshqa tomondan biz bunday o'zgarishlar ham o'zlashma ham mahalliy so'zlar uchun xos xususiyatlar ekanligiga guvoh bo'lamiz. Bu o'zgarishlar berilgan til qonuniyatlariga ko'ra so'z taraqqiyotining natijasidir. Qachonki yuqori darajada tuslangan eski ingliz tili tizimi o'rta davr ingliz tilisini soddaroq tizimga o'zgartirganda dastlabki o'zlashmalar umumiy qonuniyat asosida uyg'unlashadi. Lazu (MnE. Law), feolaza (MnE. Fellow), strat (MnE. Street), disc (MnE dish) singari tuslanuvchi o'zlashmalar ta'sir ostida eski ingliz tili grammatik formalari o'rta davr ingliz tilisiga kelib uchta shaklga ega bo'lgan. Bosh kelishik, egalik kelishigi, birlik va ko'plik shakli

(fellow, fellowes, fellowes).

Bu ikki jarayon o'rtasidagi farqni aniqlash juda muhim - olinma materialni til normalariga moslashuvi va til qonuniyatlariga ko'ra bu so'zlarning yuksalishidir. (7; 115)

O'zlashmalarning fonetik, leksik va grammatik assimilatsiyasi

O'zlashmalarni assimilatsiya jarayoni tovush tuzilishi, morfologik strukturasi, grammatik xususiyati, ma'nosi kabi o'zgarishlarni o'z ichiga oladi va tilshunoslar o'zlashmalarni fonetik, leksik, grammatik jihatdan farqlaydilar. Fonetik assimilatsiya asosiy urg'u va tovush tuzilishidagi o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Ingliz tilidagi begona tovushlar tovushlar sxemasida joylashadi.

Masalan, cho'ziq (e) fransuz tilidan kelgan o'zlashmadir, ingliz tilidagi (ei) tovushining yordami bilan ifodalaniladi (communique, chaussee, cafe).

Ingliz tiliga notanish bo'lgan tovush va tovush birikmalarini o'rnini, til me'yorlariga to'g'ri keladigan boshqa so'zlarning tovush va tovush birikmalari egallaydi. Masalan, nemischa (spitz) inglizcha (spits)ga aylangan. O'zlashish jarayonida begona tovush o'rnini mahalliy tovushlar egallaydi. Notanish tovushlar o'rnini mahalliy tovushlar egallashidan oldin uzoq vaqt ba'zi so'zlar begona talaffuzda saqlanib qoladi.

Hattoki o'zlashgan so'zlar bir qaraganda kelib chiqishi bilan bir xildek ko'rinadi masalan, OE. skill - Scand. skil; OE. scinn - Scand. skinn; OE. ran - Scand. ran; So'zning fonetik strukturasi ba'zi o'zgarishlarni boshidan kechirgan, masalan, til tarixi davrida har bir til tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish xususiyatiga kora xarakterlanadi.

Chet manbalaridan, asosan fransuz va lotin tilidan ingliz tiliga qo'shilgan so'zlarda urg'u birinchi bo'g'inga tushadi. Honour, reason kabi so'zlar, father, mother mahalliy so'zlari kabi bir xil tamoyilda talaffuz qilinadi.

Grammatik assimilatsiya

Ingliz tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar o'zlarining oldingi grammatik kategoriyasi va xususiyatlarini yo'qotadi va boshqa inglizcha so'zlar bilan yaqinligi orqali yangi grammatik kategoriya va namunalarga ega bo'ladi.

Biroq zamonaviy ingliz tilidagi ba'zi so'zlar bir necha asrlar davomida o'zining

avvalgi holatini saqlab qolgan. O'zlashgan otlarning ko'pchilik guruhi, 16-asrda kirib kelgan hamma terminlar yoki adabiy so'zlar o'zlarining oldingi ko'plik shaklini bugungi kunda saqlab qolgan. Masalan, *phenomenon* (L.) - *phenomena*; *addendum* (L.) - *addenda*; *parenthesis* (Gr.) - *parentheses*. Shu davrdagi boshqa o'zlashmalar ikki xil ko'plik shakliga ega; mahalliy va begona. Masalan, *vacuum* (L.) - *vacua*, *vacuums*; *virtuosa* (It.) - *virtuosi*, *virtuosos*.

Mahalliy tildagi strukturasi ko'ra murakkab bo'lgan, barcha olinma so'zlar ingliz tilida bo'linmas oddiy so'zlar sifatida yuzaga kelgan, masalan fransuzcha *saunter* so'zidagi *-er* qo'shimchasi saqlanib qolgan, ammo u o'zini sifatini o'zgartirib, qolgan barcha grammatik shakllari saqlanib qolgan. Masalan, (*saunters*, *sauntered*, *sauntering*) so'zlari ingliz tilidagi so'zlarning bir qismi bo'lib qolgan. Fransuz tilining o'zlik olmoshi *s-* so'zning ajralmas bo'lakidek mustahkamlangan. *Ballot*, *stiletto*, *umbrella* so'zlaridagi sobiq italyanча *-otta*, *-etto*, *-ello*, *-cello* suffikslari kimki italyanча tilni bilmasa alohida tarixiy tahlil qilinmay turib farqlanmaydi. *Portfolio* so'zining haqiqiy tarkibi ko'rinmaydi (It.*portfogli* *porta* - ko'tarish, *fogli* - bir varaq qog'oz degan ma'noni beradi). O'zlashmalarning morfologik ko'rinishining yo'qolishi milliy so'zlardagi o'xshash jarayonlarning analogiyasi orqali soddalashtirish deb atash mumkin.

Ba'zida o'zlashma so'zlardagi chetdan kirib kelgan affikslar ingliz tilidagi affikslar o'rnini egallashi mumkin. Masalan, lotinча sifatlardagi *-us* qo'shimchasining tuslanishi ingliz tilidagi *-ous* yoki *-al* suffiksi o'rnini egallagan. Masalan, L. *barbarous* - E. *barbarous*; L. *botanicus* - E. *botanical*; L. *balneus* - E. *balneal*.

Leksik assimilatsiya

Qachonki so'z boshqa bir tilga o'zlashtirilsa qoidaga ko'ra uni semantik strukturasi o'zgarishlarni boshidan kechiradi.

Ko'p ma'noli so'zlarning odatda bir yoki ikki ma'nosi saqlanib qoladi. Timbre so'zining fransuz tilida bir qancha ma'nolari bor. Lekin ingliz tiliga faqat "musiqiy termin" sifatida o'zlashgan. *Cargo* va *cask* so'zlari ispan tilida ko'p ma'noli so'zlardir. Lekin ingliz tiliga o'zlashganda faqat bir ma'nosi ya'ni, "kemaga ortilgan tovarlar" va

“suyuqlik saqlanadigan bo'chka” ma'nolarida saqlanib qolgan.

Ba'zi holatlarda hangar so'zi misolida ma'no umumiylashganda samalyotlar saqlanadigan joy degan ma'noni beradi va revue fransuzchada “review” manosida kelib ingliz tilida “alohida teatrga oid ko'ngilochar narsani” aniqlash manosida keladi.

Tarixiy rivojlanish jarayonida olinma so'z ba'zan yangi ma'noni aniqlab keladi. Masalan zamonaviy ingliz tilidagi move feli “taklif qilmoq”, “kvartirasini almashtirmoq”, “odamlar bilan qo'shilib ketmoq” ma'nolarida keladi. Scope so'zi kelib chiqishiga ko'ra “maqsad” ma'nosida bo'lgan bo'lib hozirda “tushunib olish qobiliyati”, “biror bir faoliyatda sodir bo'ladigan imkoniyat” ma'nolarida keladi. Qoidaga ko'ra yangi ma'nolar taraqqiy etishi so'z o'zlashtirilgandan so'ng 50-100 yil ichida sodir bo'ladi.

Olinma so'zlarning semantik strukturasi boshqa yo'llar bilan o'zgaradi. Masalan, terrorist so'zi fransuzcha “Jacobin” so'zidan olingan bo'lib, o'z ma'nosini kuch ishlatish, zo'ravonlik orqali hukumatni zo'ravonlik bilan boshqaruvchi ma'nosiga kengaytirgan. Umbrella so'zi “sunshade” yoki “parasol” (It. Ombrella - ombra soya so'zidan) o'zlashgan bo'lib, yomg'irdan himoyalash ma'nosini angalatadi. O'zlashma so'zni dastlabki ma'nosi o'zini tarixi orqali saqlanib qoladi. Ammo ba'zan ikkinchi ma'nosi bo'ladi. Skandinav tilidan olingan wing, root, take va boshqa so'zlar hozirgi kunda asl ma'nosini saqlab qolgan eski ingliz tilida feolaze, (zamonaviy ingliz tilida fellow) comrade-o'rtoq, companion-sherik ma'nolarida ayni bir xil manbadan o'zlashgan bo'lib, dastlabki ma'no kelib chiqishiga ko'ra yo'qolgan va yangi ingliz tilidagi man-kishi yoki boy-bola ma'nolari bilan o'rin almashgan.

Ba'zan ma'no o'zgarishi tanish so'zlarni olinma so'zlar bilan bog'lanishi natijasi bo'lib, tovush jihatidan o'xshaydi ammo tola bog'lanmagan. Bu jarayon xalq og'zaki etimologiyasi termini bilan atalib, umumiy yoki qisman so'z shaklini o'zgartiradi. Fransuzcha surround feli “toshib ketmoq” ma'nosini bergan. Ingliz tilidagi rounder so'zi beihitoyoriy ravishda round so'zi bilan uyg'unlashgan va bu fel zamonaviy ingliz tilida “qurshab olmoq” ma'nosida tarjima qilinadi. Eski fransuz tilida standard (Lot.estendere - yoyilmoq) “bayroq ma'nosida kelgan. Ingliz tilida birinchi qismi

“stand” feli bilan hatto bog'langan va standard so'zi barqaror rasmiy tarzda qabul qilingan biror ma'noning o'rnini egallagan.

Umuman olganda, so'z o'zlashish jarayoni tilning doimiy harakatdagi qonuni bo'lib, o'zbek tili leksikasiga o'zlashishi sezilarli darajada ta'sir qilgan 20 dan ortiq til o'zlashmalari mavjud. Shuningdek, tilimizda o'zlashish faol bo'lmagan bir qancha tillarning o'zlashmalari ham mavjudki, ularning lug'atlarimizdagi miqdori kam foizni tashkil etadi.

IKKINCHI BOB. O'ZBEK TILIDAGI INGLIZCHA O'ZLASHMALI

IBORALAR

Ma'lumki so'z bilan gaplashib bo'lmaydi. Fikrni berish uchun to'liq gap tuzish kerak. Gap fikrni to'liq ifodalaydi, chunki uning egasi, kesimi ma'lum. So'z va gap o'rtasida ayrim til birliklari borki, biz ularni iboralar deymiz. Iboralar fikrni to'liq anglatmaydi. Zero, ularda na shaxs, na son, na zamon ifodalanadi. Ular fikrni tushunishga yordamlashadi. Masalan, o'zbek tilini xorazm shevasini o'rganuvchi ingliz “uchak” so'zini o'rganishi mumkin. Lekin “uchak” so'zini qachon qo'llaydi, faqat sharoit taqozo qilib mavzu birovning uchaka chiqishi, uchakdan tushishi, uchakdan yiqilishi yoki uchakda biror narsani mavjudligini bildirishi zarur bo'lgan hollarda u yuqoridagi so'zga murojat qilishi uchun biror tilni o'rganganda faqat narsa va hodisa nomini emas, balki o'sha narsa va hodisaning hayotning qaysi jabhalarida zarurligi va ular anglatgan voqelikni amalga oshirishini bildiruvchi iboralar zarur. Shu ma'noda til o'rganuvchiga faqat “uchak” so'zi emas, balki uchaka chiqmoq, uchakdan tushmoq, uchakdan yiqilmoq iboralari tanish bo'lishi zarur. Shu fikr mulohazalardan kelib chiqib, biz ingliz tilidan qabul qilingan o'zlashmalar va ular bilan yasalgan iboralarga to'xtalamiz.

2.1. Iboralar va ularning so'z yasalişidagi o'rnini

Ibora mustaqil turkumlarga mansub ikki va undan ortiq leksema asosida tarkib topgan lug'aviy birlik bo'lib, asosan nominativ ma'noni ifodalaydi, shunga ko'ra leksema bilan bir qatorda qo'yiladi, leksemadan yirik nominative birlik deb yuritiladi. Masalan, ko'nglidan o'tkazmoq iborasining ma'nosi fikrlamoq leksemasining ma'nosiga, ko'ngli

joyiga tushdi iborasining ma'nosi tinchlanmoq leksemasining ma'nosiga yaqin ma'no. (16; 55-56)

Frazeologiya atamasi (gr. phrasis - ifoda va logos - ta'limot) atamasi ikki ma'noda ishlatiladi: 1) frazeologik tarkibni o'rganuvchi tilshunoslik sohasi; 2) shu tilning frazeologizm majmui.

Frazeologiyaning o'rganish predmeti frazeologizmning tabiati va substansional xususiyatlari hamda ularning nutqda amal qilish qonuniyatidir.

Frazeologizm ibora, frazeologik birlik, turg'un birikma, barqaror birikma, frazeologik birikma atamaları bilan ham yuritiladi. Frazeologiya leksikologiya bo'limining tarkibiy qismidir. Frazeologizm tashkil etuvchisiga ko'ra qo'shma leksema, so'z birikmasi va gapga o'xshaydi. Biroq ular qo'shma leksema kabi til jamiyati ongida tayyor va barqaror holda yashaydi. Boshqacha aytganda frazeologizm lisonda barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan umumiylik tabiatiga ega va nutqda xususiylik sifatida namoyon bo'ladi. (13; 129)

Ibora, o'z tuzilishiga ko'ra birikma yoki gapga teng bo'ladi. Masalan, bir so'zli, turgan gap, ko'z ochirmaslik, bosh olmoq iboralari o'z tuzilishiga ko'ra birikmaga teng; toqati toq, tili uzun, boshi qotdi iboralari esa gapga teng. Ko'rinadiki, iboraning ifoda planini izohlashdan avval birikma va gap haqida ma'lumot berish lozim.

Leksemalarning o'zaro sintaktik bog'lanishi bilan bog'lanma yuzaga keladi. Bunday bog'lanma - nutq birligi, chunki u ma'lum tushuncha yoki fikrni anglatish talabi bilan nutq jarayonida tuziladi; bular til xotirasida yaxlitligicha mavjud bo'lmaydi, balki talabga ko'ra nutqda shu tilning grammatik qurilishiga xos qoliplar asosida yangidan tuziladi. Masalan, Nurmatjon shu qanoat bilan besh-olti yilni o'tkazdi gapi malum fikrni anglatish maqsadida nutq jarayonida tuzilgan. Fikr aytilgach, bu nutq birligi bir butun holda saqlanib qolmaydi. Bu gap uchun qurilish materialı bo'lib xizmat qilgan har bir leksema o'z ma'no mustaqilligini saqlab qatnashadi. Yuqoridagi xususiyatlari asosida bunday nutq birligi erkin bog'lanma deb yuritiladi. (16; 56)

Ibora erkin bog'lanmadan qurilishi bilan farqlanmasa ham, grammatik qurilishining mohiyati bilan farqlanadi. Ibora har gal nutq jarayonining o'zida tashkil topmay, balki

ungacha bir butun holga kelgan bo'ladi, til xotirasida yaxlitligicha yashaydi, nutqqa ham yaxlitligicha kiritiladi. Masalan, Nurmatjon Adolatxonga ko'z tikdi gapi ko'rinishida to'rt so'z shaklidan tuzilgan, ammo uning tarkibida uch lug'aviy birlik qatnashgan: Nurmatjon, Adolatxon, ko'z tikmoq. Birinchi va ikkinchi birliklar - leksema, uchinchi esa ibora. Bu ibora tarkibida bor bo'lgan leksemalar ham aslida ikki lug'aviy birlik (ko'z, tikmoq), ammo ibora shu ikki leksema asosida tashkil topgan alohida lug'aviy birlikdir. Yuqoridagi gapda ko'z va tikmoq leksemalari emas, balki ko'z tikmoq iborasi qatnashgan. Bunday til birligi, nutq birligiga zid qo'yilib, turg'un bog'lanma deb nomlanadi.

Turg'un bog'lanma terminining ma'nosi juda keng. Bunday til hodisalarini dastlab ikkiga guruhlash mumkin: 1) to'g'ri ma'noli turg'un bog'lanmalar; 2) ko'chma ma'noli turg'un bog'lanmalar. Turg'un bog'lanmalarining bu ikki turi o'z ma'nosiga ko'ra birbiridan farqlanadi: har ikkisida ma'lum bir voqelik anglatiladi, lekin birinchisi, odatda, voqelikni nomlash bilan chegaralansa, ikkinchisida ko'chma ma'no, obrazlilik ham qatnashadi.

To'g'ri ma'noli turg'un bog'lanmalarining asosiy ko'rinishlari quyidagicha:

- a) Sostavli terminlar: madaniy-oqartuv muassasasi, elektron hisoblash mashinasi kabi;
- b) Takroriy konstruksiyalar: kuchga kuch qo'shildi, husniga husn qo'shib turibdi, kundan kunga, tildan yilga kabi.

Frazema deb ko'chma ma'noli turg'un bog'lanmalarga aytiladi: ter to'kmoq, xamirdan qil sug'urganday kabi.

Iboralarning ifoda plani deyilganda, birinchi navbatda, ularning grammatik qurilishi tushuniladi. Hozirgi o'zbek tilida iboralarning grammatik qurilishining umumiy tavsifi quyidagicha:

1. Iboralarda hozirgi o'zbek tilidagi sintaktik bog'lanishlarning barcha turlari o'z aksini topgan. Iboralarning ko'pchilik qismi birikmaga tengdir. Gapga teng qurilishlari ham anchagina. Birikmaga teng, shuningdek, gapga teng qurilishli iboralar, o'z navbatida, xilma-xil ko'rinishlarga ega.

yig'iq birikma va yopiq birikma tushunchalarini kiritishga olib keladi. Yopiq birikmaga teng qurilishli iboralarga misollar: gapini og'zidan olmoq, tirnoq ostidan kir qidirmoq, suv bo'yiga olib borib, sug'ormay olib kelmoq kabilardir.

4. Tarkibida ayrim so'z shakl bilan ifodalangan ega bo'lagi bo'lsa, shunday ibora qurilishiga ko'ra gapga teng hisoblanadi: joni chiqdi kabi.

Birikmaga teng qurilishli fel iboralar matnda kesim bo'lim keladi va shu vazifasiga mos holda mayl, zamon va shaxs-son shakllarini oladi, lekin shu asosda bunday iborani gapga teng qurilishli deb qarab bo'lmaydi. Chunki bunday ibora til birligi sifatida nutqqa kiritilmasdan avval kesimlik shakllariga ega bo'lmaydi. Masalan, joniga tegmoq iborasi birikmaga teng qurilishli bo'lib, matndagina kesim kabi shakllanadi: Jonimga tegdi bu xarxashalar, ketaman shaharga.

5. O'z ichida ergash gapli yerning tagida ilon qimirlasa , bilmoq kabi iboralarni birikmaga teng qurilishli birliklar qatoriga kiritish to'g'ri. Chunki qo'shma gap ko'rinishli bunday iboraning bir butun holda olingandagi grammatik mohiyati uning ikkinchi qismiga ko'ra belgilanadi. Yuqoridagi kabi iboralarda ergash gapdan (yerning tagida ilon qimirlasa) tashqari qism (bilmoq) gapga teng emas. Chunki bu qismning o'z ichida ayrim so'zshakl bilan ifodalangan ega bo'lagi yo'q. Bunday iboralarning fel qismi kesimlik shakllarini nutqda oladi.

Demak, yoyiq birikmaga teng iboraning ichki qurilishida to'liq shakllangan soda gap bo'lishi mumkin, ammo bunday sodda gap iboraning ichki qurilishiga mansub bo'lib, iborani bir butun holda gapga teng deyish uchun asos bo'la olmaydi.

6. Iboralar orasida qo'shma gapga teng qurilishli birliklar ham uchraydi: begim deguncha, beli sinadi kabi. Ba'zi iboralar aslida dialogdan o'sib chiqqan: tuya ko'rdingmi, yo'q kabi. Ergash gap ko'rinishli qismlardan tuzilgan iboralar ham bor: ana-mana deguncha, kampir shaftoli yeguncha kabi. Mana bu iboraning birinchi qismi birikmaga, ikkinchi qismi esa gapga teng qurilishli: qushbegi bilan shovla yemaydi, tirnog'I kuyadi va boshqalar.

7. Ibora qismlarida tartib erkin bog'lanmalardagi tartibdan farq qilmaydi. Ba'zi

istisnolar poetik nutq yoki so'zlashuv nutqi sintaksisi hisobiga (sichqon sig'mas iniga), tojik tili sintaksisi hisobiga kelib chiqadi.

Misollardan ko'rinib turibdiki, iboraning ifada plani deb uning tarkibidagi leksemalargina emas, balki iboraning doimiy tarkibiy qismi sifatida qatnashuvchi morfemalar ham qaralishi lozim. Chunki bunday morfemalar, leksemalar qatori, iboraning ichki grammatik qurilishiga mansub bo'ladi. Nutqda ishlatish munosabati bilan qo'shiladigan qismlargina iboraning ifoda planiga mansub bo'lmaydi. Masalan, Shumliging o'zingning boshingga yetsin gapida qatnashgan boshingga yetsin iborasining ifoda plani deyilganda avvalo bosh, yetmoq leksemalari, shuningdek, -ga morfemasi tushunilishi lozim. Bu ibora tarkibida qatnashayotgan tuslovchi (shaxs-son affiksi) nutqda kesim vazifasida kelishi munosabati bilan qo'shiladi, demak, bu iboraning ifoda planiga kirmaydi. (16; 5758-59)

H. Jomolxonov frazemalarni frazeologik monosemiya va polisemiyaga bo'lib o'rgangan.

Frazeologik monosemiya - iboraning semantik tarkibida bitta frazeologik ma'noning bo'lishi. Masalan, ko'ngliga qo'l solmoq iborasining semantik tarkibida “yashirin fikr-o'yini bilishga harakat qilmoq” ma'nosidan boshqa frazeologik ma'no yo'q: “Rizaning yuragiga qo'l solib ko'rgan Muhiddin uning javobidan xursand bo'ldi”. “Kechagi ishdan maqsadim u yerdagi xotinlarning ko'ngliga qo'l solib ko'rish, undan keyin o'zimga ba'zi bir ishonchliroqlarini tanlab olish edi”. Keltirilgan gaplarning birinchisida ko'ngliga qo'l solmoq iborasining variatsiyasi _ “yuragiga qo'l solib ko'rmoq” ishlatilgan, har ikki holda ham frazeologik ma'no - “yashirin fikr-o'yini bilishga harakat qilmoq” nazarda tutilgan.

Frazeologik polisemya - iboraning semantik tarkibida ikki yoki undan ortiq frazeologik ma'noning bo'lishi. Masalan: boshim ayalandi iborasining semantic tarkibida ikkita frazeologik ma'no bor: 1) “Behud bo'lmoq” ma'nosi: “stol yoniga kelguncha unung boshi aylanib ketdi. “Muncha darmonsiz bo'lmasam”,- o'yladi u”. 2) Esankiramoq ma'nosi: “...muloyim qarab qo'yishlarini, ...jilmayib gapirishlarini sezardim, buning hammasidan boshim aylanardi”.

Leksemalarda bo'lganidek, iboralarda ham polisemiya hodisasi ma'no ko'chish qonuniyatlariga asoslanadi. (8; 219)

Iboralarning semantik turlari

Ibora ma'nosi bilan uning tarkibida qo'llangan leksemalar ma'nosi o'rtasidagi munosabat asosida iboraning ikki semantik turi farqlanadi:

1. Frazeologik butunlik. Bunday iboraning umumlashgan ko'chma ma'nosi ibora tarkibidagi leksemalar ma'nosi bilan izohlanadi. Masalan, tepa sochi tikka bo'lmoq iborasi yaxlit holda "g'azablanmoq" ma'nosini - umumlashgan ko'chma ma'noni anglatadi. Bunday ko'chma ma'noga esa kishi darg'azab bo'lganida uning badanidagi tuklarning sezilar-sezilmas harakatga kelishi asos bo'lgan, demak, iboraning ko'chma ma'nosini ibora tarkibidagi so'zlarning o'z ma'nolari bilan izohlash mumkin.
2. Frazeologik chatishma. Bunday ibora ifodalangan ko'chma ma'no ibora tarkibidagi so'zlar anglatgan leksik ma'nolar bilan izohlanmaydi. Masalan, ikki qo'lini burniga tiqmoq iborasi "quruqdan quruq , evaziga hech narsa olmay" ma'nosini ifodalaydi, bu ma'no ibora tarkibidagi so'zlarning ma'nolari bilan izohlab bo'lmaydi: "Kelmagandan keyin, domlaga "ozodlik" olib kelish kerakda. Bu bo'lsa shumshayib, ikki qo'lini burniga tiqib keldi". "...Senga ish yo'q!" - deb, bizni quvib yubordi. Katta o'g'lim bilan ikki qo'limizni burnimizga suqib o'z uyimizga bordik".

Frazeologik butunlik bilan frazeologik chatishma orasida malum umumiylik va tafovutlar bor. Ularni quyidagicha izohlash mumkin:

Umumiylik: 1) ikkalasi ham turg'un konstruksiya sanaladi; 2) ikkalasida ham umumlashgan yaxlit bir ma'no ifodalanadi; 3) ikkalasida ham uslubiy bo'yoq bo'ladi, chunki iboralarning barchasi voqelikni nomlash bilan cheklanmaydi, uni baholash xususiyatiga ham ega; 4) ikkalasi ham nutqda yaxlit holda bitta sintaktik vazifada qo'llaniladi.

Farqlari:1) frazeologik butunlik tarkibida so'zlarning ma'nolari iboraning ko'chma ma'nosini ifodalaydi. Frazeologik chatishmada esa so'zlar ma'nosi bilan ibora ma'nosi

o'rtasida bunday aloqa yo'q;

2) frazeologik butunlikning ma'nosida ichki obraz saqlanadi: tarkibidagi so'zlarga xos ma'nolar sezilib turganligidan iboraning ma'nosi ko'p qirrali, boy bo'ladi. Frazeologik chatishma ma'nosining gavdalanishida esa ibora tarkibidagi so'zlarning ma'nolari ishtirok etmaydi, shuning uchun unda ichki obraz so'nggan bo'ladi. (8; 220)

Iboralarning ma'no munosabatiga ko'ra turlari

H. Jamolxonovning fikriga ko'ra bunday munosabat asosida frazeologik sinonimiya va frazeologik antonimiya hodisalari yuzaga keladi.

1. Frazeologik sinonimiya bir necha iboraning bitta frazeologik ma'no atrofida birlashishidir. Masalan: 1) pixini yorgan - “ayyor”,

2) ilonning yog'ini yalagan - “ayyor” kabi. Leksik sinonimiyada bo'lganidek, frazeologik sinonimiyada ham sinonimik qatorlar yuzaga keladi: pixini yorgan va ilonning yog'ini yalagan iboralari “ayyor” ma'nosi bilan bitta sinonimik qatorni hosil qilmoqda. Frazeologik sinonimlarda uslubiy bo'yoq, odatda, bo'rtib turadi. Aslida, frazeologik birliklar xuddi shu maqsadda - voqelikni nomlashda uni o'tkir baholab berish uchun, shu voqelikka ijobiy va salbiy munosabat ifodalash uchun yaratiladi, shuning uchun ular nutqning ta'sirchan, obrazli bo'lishini ta'minlovchi muhim uslubiy vosita sanaldi. Masalan: 1) Bunga Botirning achchig'i keldi, buni Bo'ston sezdi.

2) Keyingi nasihatimiz gapi qonini qaynatib yubordi.

Frazeologik sinonimiya hodisasi ko'proq har bir tilning o'z iboralari doirasida uchraydi: Qilidan quyrug'igacha - ipidan iganasigacha; Quvonchi olamga sig'maydi - sevinchi ichiga sig'maydi kabi. Boshqa tildan ibora o'zlashtirish juda passiv bo'lganligidan, o'zlashma iboralarning frazeologik sinonimiya doirasiga tortilishi juda kam uchraydi.

Frazeologik sinonimiya hodisasini frazeologik variatsiyadan farqlash kerak: frazeologik sinonimiyada bir necha ibora bir ma'no atrofida birlashadi, demak, bitta sinonimik qatorni hosil qiladi; frazeologik variatsiyada esa bitta iboraning ko'rinishlari nazarda tutiladi, bunday ko'rinishlar sinonimik qator hosil qilmaydi. Masalan: 1) ko'zini yummoq;

2) bandalikni bajo keltirmoq;

3) jon bermoq.

